

Yosh kadrlardan tashabbus

GIM fakulteti SXMIM yo'nalishi 1-kurs talabalari o'rtasida "Kelajak o'z qo'limizda" shiori ostida institutimizning yosh kadrlari bilan tajribalar almashish maqsadida uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuv davomida Prezident stipendiyasi sovrindori Ozodov E'zoz, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'limi xodimlari Mutalov Alisher va Akbarov Dilmurodlar qatnashdilar.

Talabalarimizga ilmiy maqolalarni yozish va topshirish tartibi, ilmiy jurnallar va konferensiyalar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar berildi. Ilmiy maqolalar orqali ilmiy nuqtai nazarni oshirish, ilmiy rahbar tanlash hamda nomdor stipendiyalarni yutish tartib-qoidalari tanishtirildi.

Davra suhbatlari jarayonida talabalarimizni qiziqtirgan savollarga javob berildi. Tashkiliy masalalarda fakul'tet Ma'naviyat ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari O.Ro'ziboev hamda fakul'tet Yoshlar ittifoqi raisi S.Temurovlar faollik ko'rsatdilar. Kelajakka qadam bugungi kundan boshlanadi zeroki, bugungi qilingan har bir harakat natijasiz qolmaydi.



"Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi Sarvinoz Xolova axboroti

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov